

REDUPLICATION METHOD IN THE FORMATION OF DERIVED WORDS

f.f.f.d. Turayeva Iroda Sheramatovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Ergasheva Mehriqul Zulfiqor qizi
Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabasi

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of reduplication in the process of deriving new words in the Uzbek language. Reduplication is explained as an effective word-formation method in which a new meaning is created through the full or partial repetition of a word. The study examines its two main types - full and partial reduplication - as well as their manifestations with and without phonetic changes. Through examples, it is shown that each type of reduplication fulfills various semantic functions in Uzbek, such as intensification, duration, repetition, and expressiveness. The article also reveals the ancient roots of reduplication based on historical sources, including the Orkhon-Enisei inscriptions and the work Qutadghu Bilig. In addition, modern forms of reduplication emerging in contemporary spoken language, particularly those influenced by borrowed words, are analyzed.

Keywords: Word formation, reduplication, derived word, word-formation methods, structure of reduplication, reduplication with phonetic modification, reduplication without phonetic modification, semantic reduplication.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilida yasama so'z hosil bo'lish jarayonida reduplikatsiya usulining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Reduplikatsiya so'zning butun yoki qisman takrorlanishi orqali yangi ma'no hosil qiluvchi samarali yasaliish vositasi sifatida izohlanadi. Tadqiqotda uning ikki asosiy turi - to'liq va qisman reduplikatsiya hamda ularning fonetik o'zgarish bilan yoki o'zgarishsiz namoyon bo'lish shakllari ko'rib chiqiladi. Misollar orqali har bir tur o'zbek tilida kuchaytirish, davomiylik, takroriylik va baholash kabi semantik vazifalarni bajarishi ko'rsatib beriladi. Maqolada tarixiy manbalar - O'rxun-Enasoy bitiklari va "Qutadg'u bilig" asaridagi yasama so'zlar misolida reduplikatsiyaning qadimiy ildizlari ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy so'zlashuv nutqida paydo bo'layotgan yangi reduplikatsiya shakllari, xususan, chet tillardan kirib kelgan so'zlar asosidagi variantlar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: so'z yasaliishi, reduplikatsiya, yasama so'z, so'z yasaliish usullari, reduplikatsiya tuzulishi, fonetik o'zgarish bilan keluvchi reduplikatsiya, fonetik o'zgarishsiz keluvchi reduplikatsiya, semantik yo'nalishdagi reduplikatsiya.

Аннотация

В данной статье анализируются роль и значение редупликации в процессе образования производных слов в узбекском языке. Редупликация объясняется как эффективное словообразовательное средство, при котором новое значение формируется путём полного

или частичного повторения слова. В исследовании рассматриваются её два основных типа -полная и частичная редупликация, а также их проявления с фонетическими изменениями и без них. На примерах показано, что каждый тип редупликации выполняет в узбекском языке такие семантические функции, как усиление, длительность, повторяемость и оценочность. В статье также раскрываются древние корни редупликации на материале исторических источников - Орхон-Енисейских надписей и произведения «Кутадгу билиг». Кроме того, анализируются современные формы редупликации, появляющиеся в разговорной речи, в том числе варианты, возникшие под влиянием заимствованных слов.

Ключевые слова: словообразование, редупликация, производное слово, способы словообразования, структура редупликации, редупликация с фонетическими изменениями, редупликация без фонетических изменений, семантическая редупликация.

Har bir til o'zining so'z yasash tizimiga ega bo'lib, bu tilning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. So'z yasalishi orqali yangi so'zlar paydo bo'laveradi, mana shunday so'zlarni paydo qilishimiz bu "Yasama so'z" deb ataladi. Ilmiy qarashlarga ko'ra, asos so'zga qo'shimcha qo'shib, yangi ma'no anglatadigan so'zlar yasama so'zlar deyiladi. Misol uchun, internet+chi=internetchi, dastur+chi=dasturchi. Shuningdek, qadimgi asarlarda turkiy tillarda ham yasama so'zlar keng qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, O'rxun-Enasoy yodgorligi VII asr turk xoqonligi davrida turkiy xalqlarining eng qadimgi manbalaridan biri bo'lgan. Ushbu yodgorlikda uchraydigan yasama so'zlar "Bilgalik"-bilgilik, donolik; "yaragsiz"-yuraksiz; "Bilgu"-bilguvchi[1]. Qolaversa, Yusuf Xos- Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida yasama so'zlardan keng qo'llanilgan. Masalan, "Yaxsh+liq=yaxshiliq", "Ayt+g'u=aytg'u", ya'ni so'zlovchi, nasixat qiluvchi degan ma'nolarni anglatadi[2]. Shuningdek, A.Hojiyev yasama so'z haqida "So'z yasalish tizimi tilning ichki qonuniyatlari asosida rivojlanadi va bu jarayon xalq tafakkurining ifodasidir" deydi[3]. Bu bilan so'z yasalish nafaqat grammatik, balki ijtimoiy -madaniy hodisa ham hisoblanadi. Bu grammatik qarashlarda so'z yasalishi bir nechta asosiy usullarga bo'linadi. Ularga affiksatsiya, qo'shma so'z yasash, semantik usul, konversiya va reduplikatsiya usullari kiradi. Biz ham aynan yasama so'z hosil bo'lishida reduplikatsiya usuli mavzusi haqida fikr yuritamiz, ammo bu haqida gapirishdan oldin reduplikatsiya nima ekanligini bilish lozim. Reduplikatsiya – so'zning butun shakli yoki bir qismini takrorlash, orqali yangi so'z hosil qilish usuli. Bu usul haqida Sh.Rahmatullayev shunday deydi:"Reduplikatsiya tilda kuchaytirish, takroriylik va davomiylik ma'nolarini ifodalovchi eng to'g'ri yo'l "[4].

Reduplikatsiya usulining o'zi ham ikkita asosiy shaklda namyon bo'ladi.

1.To'liq reduplikatsiya so'zning to'liq takrorlanishi, masalan, katta-katta, chat-chat, birin-birin. Bunday so'zlar ketma-ketlik, tartib bilan va kuchaytirish bilan bajarilishini bildiradi.

2.Qisman reduplikatsiya – so'zning bir qismi yoki negiz shakli takrorlanishi hisoblanadi va u odatda sifat, ravish va ot so'z turkumlarida uchraydi. Misol uchun, "Quruq-muruq" yoki "yalang-malang", "Yaltir-yultir". Qolaversa, bu so'zlardagi birinchi qism, asosiy manoni ifodalashda, ikkinchi qism, esa kuchaytirish, ta'sirchanlik beruvchi fonetik o'zgarishni beradi. Masalan, yuqoridagi "quruq-muruq" so'zida ishonchsizlik va salbiy kinoya ma'nolari bor yoki

“Tip-tiniq“ soʻzida belgining qisman kuchayganlik darajasini ifodalagan. Har ikkala turdagi reduplikatsiya ham nutqda ifoda kuchini oshirishda va ohangni yumshatish yoki kinoyaviy maʼno yaratish uchun xizmat qiladi.

Reduplikatsiyaning tuzilish turlari uchga boʻlinib oʻrganiladi.

a) fonetik oʻzgarish bilan kechuvchi reduplikatsiya, yaʼni bu soʻzning takrorlangan qismi fonetik jihatdan oʻzgarishi. Masalan, “qizil-pizil“, “dars-pars “. Bu usul odatda norasmiy ohangni ifodalashda qoʻllaniladi.

b) fonetik oʻzgarishsiz reduplikatsiya- takrorlangan soʻzning ikkala qismi ham hech qanday fonetik hodisalarga uchramaydi. Misol uchun, “yurib-yurib“, “bora -bora“. Bu shakli soʻzlarga davomiylik va kuchaytirish manolarini ifodalaydi.

c) Semantik yoʻnalishdagi reduplikatsiya - boshqalarga oʻxshamagan holda takroriylik orqali qarama-qarshi yoki umumlashtiruvchi maʼno hosil qiladi. Masalan, “uzun-qisqa“, “past-baland“. Qolaversa, hozirgi raqamli dunyoda chet-eldan kirib kelgan, zamonaviy soʻzlar hozirda insonlarning oddiy soʻzlashuv soʻzi sifatida shakllangan. Shunga koʻra, Zamonaviy reduplikatsiya hosil boʻlgan. Zamonaviy reduplikatsiya - “chat-pat“, “onlay -ponlayn“, “like-pike“.

Reduplikatsiya oʻzbek tilida asosan quyidagi semantik vazifalarni bajaradi:

1. Kuchaytirish yoki taʼkidlash – predmet yoki harakatning darajasini oshiradi: katta-katta, uzun-uzun, tez-tez.
2. Koʻplik yoki takrorlanish maʼnosini ifodalash – bir necha marta sodir boʻladigan harakatni bildiradi: yana-yana, bora-bora, qara-qara.
3. Baholash, hissiy maʼno berish – subyektiv munosabatni ifodalaydi: mayda-chuyda, pala-partish, gʻalati-malati.
4. Tovush taqlidi va ohangdorlik – soʻzning ifoda kuchini oshiradi: shuv-shuv, gʻuv-gʻuv, pat-pat.

Xulosa qilib aytganda, yasama soʻzning hosil boʻlishida reduplikatsiya usuli asosiy rol oʻynaydi. Negaki bu usulda yordamida soʻzlarning maʼnosi kengayadi va oʻzgaradi. Shuningdek, reduplikatsiya usuli bilan yasalgan yasama soʻzlarda emotsional holatlar, yaʼni taʼsirchanlik kuchli boʻladi va obrazlilikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Mahmudov, A. Sobirov . Turkiy tillar tarixi. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.134-bet.
2. I.Toʻxtasinov. ”Qutadgʻu bilig tili va morfologiyasi”. - Toshkent: Fan nashriyoti, 1986. 111-122-betlar.
3. A.Hojiyev. Oʻzbek tili soʻz yasash tizimi.-Toshkent: Oʻqituvchi.2007.6-7-betlar.
4. Sh.Rahmatullayev “Hozirgi oʻzbek adabiy til”. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1992/2006.